

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Ёркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ёшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

1. Рахбархон Муртазаева OLIY TA'LIMNI GUMANIZATSIYA VA GUMANITARIZATSIYALASH: "OLTIN O'RTALIQ"NI IZLASH.....	4
2. Oygul Alshykenova QOZOG'ISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMNINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI: TARIX VA FAKTLAR.....	11
3. Aziza Aminova QUYI ZARAFSHON VOHASI IQTISODIY TARAQQIYOTINING O'RGANISH XUSUSIYATLARI.....	18
4. Бехзод Исабеков ТУНКАТ-ИМЛОҚ КЎХНА ШАХАР ХАРОБАСИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР.....	25
5. Jasurbek Karimjonov MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI MUKOFOTLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI.....	30
6. Қодиржон Нажмиддинов НАМАНГАН ШАХРИДАГИ ВИЛОЯТ ШИФОХОНАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	35
7. Нихола Нарзуллаева МУЛЛО САЙИД АХРОР МАҲДУМНИНГ ЎЛЧОВГА ОИД РИСОЛАСИ.....	41
8. Умирилло Ортиқов ЕТТИСУВ ВИЛОЯТИГА МЕТРОПОЛИЯДАН КЎЧИРИБ КЕЛТИРИЛГАН АҲОЛИНИНГ ЖОЙЛАШУВИ ВА ТУРМУШИ.....	45
9. Jurabek Polvonov МАНАЛЛИЙ ТАРИХЧИЛАР АСАРЛАРИ ВА КУНДАЛИКЛАРИДА ХИВА ХОНЛИГИДА НАРБИЙ БОШҚАРУВ ВА МУДОФАА ТИЗИМИ.....	51
10. Abdilatip Sarimsokov FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARINING KUZ FASLIDA O'TKAZILGAN TAQVIMIY URF-ODAT VA MAROSIMLARI.....	59
11. Mahfuzaxon Shamsiyeva MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN O'ZARO НАМКОРЛИКНИНГ ЯНАГИ БОСҚИЧИ.....	65
12. Saida Hakimova RUS TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN OROL DENGIZINING O'RGANILISHI (L.BERG EKSPEDITSIYASI MISOLIDA).....	70



Abdilatif Abdiraximovich Sarimsokov,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Namangan davlat universiteti
abdulsarimsokov@gmail.com

FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARINING KUZ FASLIDA O'TKAZILGAN TAQVIMIY URF-ODAT VA MAROSIMLARI

For citation: Abdilatip A. Sarimsokov. AUTUMN CALENDAR CUSTOMS AND RITES OF THE UZBEKS OF THE FERGHANA VALLEY. Look to the past. 2023, vol. 6, issue 11, pp.59-64

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10157301>

ANNOTATSIYA

Yil taqvimini bilan bog'liq marosimlar har bir xalqning o'tmishini, qadimiy madaniyatini qayta tiklashda o'ziga xos o'rin tutgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi o'zbeklarining taqvimiy marosimlari boshqa etnoslarga tegishli xilma xil taqvimiy marosimlar orasida o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada o'zbeklarning kuz faslida o'tkaziluvchi "Mehrjon", "qovun sayli", "birinchi chanoq", "Hosil bayrami", "jun qirqimi", "qo'chqor qo'shish" kabi taqvimiy urf-odat, marosim va bayramlarining vujudga kelish tarixi, transformatsiyasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Farg'ona vodiysi, o'zbek xalqi, kuz fasli, taqvimiy marosimlar, o'simlik dunyosi, suv, "Avesto", qadimiy diniy tasavvurlar, zardushtiylik, islom, "Mehrjon", "qovun sayli", "birinchi chanoq", "Hosil bayrami", "jun qirqimi", "qo'chqor qo'shish".

Абдилатип Абдирахимович Саримсоков,
кандидат исторических наук, доцент
(Наманганский государственный университет)
abdulsarimsokov@gmail.com

ОСЕННО-КАЛЕНДАРНЫЕ ОБЫЧАИ И ОБРЯДЫ УЗБЕКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

АННОТАЦИЯ

Ритуалы, связанные с календарем года, занимают особое место в реконструкции прошлого и древней культуры каждого народа. В частности, среди различных календарных обрядов других этносов выделяются календарные обряды узбеков Ферганской долины. В данной статье анализируется история и трансформация узбекских календарных традиций, обрядов и праздников, таких как «Меҳрджон», «Сбор дыни», «Первый урожай», «Сбор урожая», «Стрижка шерсти», «Добавление барана в стадо», проводимых в осеннюю пору.

Ключевые слова: Средняя Азия, Ферганская долина, узбекский народ, осенняя пора года, календарные обряды, флора, вода, «Авеста», древние религиозные представления,

зороастризм, ислам, «Мехрджон», «дынная связка», «первый урожай», «Урожай», «стрижка шерсти», «Добавление барана в стадо».

Abdilatip A. Sarimsokov,
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor
Namangan State University
abdulsarimsokov@gmail.com

AUTUMN CALENDAR CUSTOMS AND RITES OF THE UZBEKS OF THE FERGHANA VALLEY

ABSTRACT

Rituals related to the calendar of the year have a special place in the reconstruction of the past and ancient culture of each nation. In particular, the calendar rituals of the Uzbeks of the Fergana Valley stand out among the different calendar rituals of other ethnic groups. This article discusses Uzbek calendar traditions, rituals and holidays, such as “Mehrjon” (sun holiday), “Melon Harvest”, “First Cotton”, “Harvest Festival”, “Wool shearing”, “adding a ram to the herd”.

Index Terms: Central Asia, Fergana Valley, Uzbek people, autumn season, calendar rituals, flora, water, “Avesta”, ancient religious ideas, Zoroastrianism, Islam, “Mehrjon” (sun holiday), “Melon Harvest”, “First Cotton”, “Harvest Festival”, “Wool shearing”, “adding a ram to the herd”.

1. Dolzarbli:

O'zbek xalqining ma'naviy merosi tizimida o'ziga xos o'rinni egallovchi taqvimiy urf-odat va marosimlar ayni paytda insoniyat madaniyatining muhim komponentlaridan biridir. Yil taqvimi bilan bog'liq marosimlar kishilar hayotining barcha bosqichlarida uchraydi va ular odamlarning oilaviy, xo'jalik hamda jamoaviy hayotlarini tartibga solib turadi. Mazkur marosimlar turli davrlarda har xil diniy va siyosiy tazyiqlar ostida shaklan o'zgargan yoki transformatsiyaga uchragan bo'lishiga qaramay, hamon ijtimoiy hayotda o'ziga xos o'rin egallab kelmoqda. Aynan mazkur jihat birinchidan, o'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzining o'ziga xosligi va tarixiy asoslarini o'rganishda dolzarb hisoblansa, ikkinchidan, taqvimiy marosimlarning lokal xususiyatlarini tadqiq qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi bilan ham e'tiborga molikdir.

O'zbeklarning taqvimiy marosimlari tarkibidagi kuz faslida o'tkaziluvchi urf-odatlar ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu davr xalq orasida “pishiqchilik, to'qchilik davri” deyilib, dalalar, bog'lar, yaylovlarda ish qizg'in bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, ushbu davrda ko'plab taqvimiy marosimlar o'tkazilib kelingan. Ularda asosan yil bo'yi qilingan mashaqqatli mehnat samarasi bo'lgan hosilni nest-nobud qilmasdan yig'ishtirib olish hamda shukronalik tuyg'ulari aks etganligini ko'rish mumkin.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda vodiy o'zbeklarining kuz faslida o'tkaziluvchi bir qator marosimlari tahlil qilingan. Mazkur marosimlar folkloristik va etnografik jihatdan bir qator ilmiy izlanishlarda o'z aksini topgan.

Etnolog A. Ashirovning “Avesto” bilan bog'liq tadqiqotida o'zbeklarning taqvimiy marosimlar genezisini o'rganishga doir ma'lumotlar berilgan. Etnograf U. Jahonovning tadqiqotida taqvimiy urf-odat va marosimlar ham qayd etilgan bo'lib, bir mintaqada yashayotgan o'zbek va tojiklarning taqvimiy marosimlarini qiyosiy jihatdan o'rganishda juda katta ahamiyat kasb etgan. Folklorshunos M. Jo'raevning ko'plab tadqiqotlarida o'zbeklarning kuzgi marosimlar hamda chorvachilik marosimlarini folklorining janrlar tarkibi atroflicha yoritilgan. Folklorshunos B. Sarimsoqov tadqiqotlarida xalq taqvimlari, mavsumiy marosimlar ilk marotaba turkumlab berilgan. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasiga doir ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirgan N. P. Lobacheva o'zbeklarning “Paxta bayrami” – “Birinchii chanoq” bayrami to'g'risida ham

ma'lumotlar bergan. Madaniyatshunos U. Qoraboev o'zbek xalqi bayramlari tarixi hamda rivojlanish bosqichlariga bag'ishlangan tadqiqotida Mehrjon va qovun saylining turli davrlarda bayram sifatida nishonlanganligini tadqiq qilgan. Akademik K. Shoniyozevning "*O'zbek xalqining etnik tarixi (qipchoq komponenti materiallari asosida tarixiy etnografik tadqiqot)*" nomli yirik monografiyasida Farg'ona vodiysi qipchoqlari turmush tarzini yoritish jarayonida taqvimiy marosimlarga oid ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. V. B. Haqliev tadqiqotida qishloq jamoalari tomonidan yilning turli vaqtlarida amalga oshiriluvchi urf-odatlar to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

O'zbeklarning kuzgi tengkunlikda o'tkaziluvchi qadimiy taqvimiy bayrami "Mehrjon" eng tantanali ravishda o'tadigan bayramlaridan biri sanalgan. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida "Quyosh va oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, Navro'z va Mehrjon zamonning ikki ko'zidir"[4:253, 261],– deb bejiz ta'kidlamagan.

Navro'z bayrami qadimiy forslar taqvimidagi yettinchi oy nomidan olingan bo'lib, 23 sentyabrdan – 22 oktyabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Beruniyning "*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*" asarida yozilishicha "...*"mehr"* – Quyosh nomi, Quyosh shu kuni olamga zohir bo'lib, (bayram) uning nomi bilan atalgan". "Zardusht Mehrjon bilan romro'z (ushbu oyning 21 kuni)ni birga hayit qilishni buyurgan. Keyinchalik mazkur bayram huddi Navro'zdagi singari bir oy davomida aholining turli tabaqalari o'rtasida besh kundan bayram qilingan"[4:262].

"Navro'z" yangi yil, yangi ish mavsumining boshlanishi sifatida tantana qilingan bo'lsa, "Mehrjon" o'simliklar dunyosining o'sishdan to'xtab, "uyquga ketishi", mehnat mavsumining yakunlanishi sifatida bayram qilingan.

Mazkur bayram o'rta asrlarda ham davom etgan etgan. Abulfazl Bayhaqiy ma'lumotlarga ko'ra, Amir Ma'sud Mehrjonni katta tantanalar bilan bayram qilishni buyurgan. Saroyda tuzalgan bayram dasturxonida saroy amaldorlari, xorijiy mamlakatlardan kelgan elchilar, shoirlar ishtirok etganlar. Mazkur bayram mamlakat bo'ylab keng miqyosda nishonlangan [1:365].

Boshqa bir tadqiqotchi Adam Metsning yozishicha, Mehrjon sentyabrning oxirlarida Yangi yil bayrami singari juda katta tantanalar bilan nishonlangan. Ushbu bayramda ham odamlar xuddi Navro'zdagi singari bir-birlariga turli sovg'alar taqdim etganlar. Xalq esa shu kunlarda ro'zg'orlaridagi gilam, idish va kiyimlarining katta qismini almashtirganlar [13:333].

Ma'lumotlarga ko'ra, XV asrda Samarqand yaqinida "Bedana qo'riqxonasi" mavjud bo'lib, bu yerdan yilda ikki marta – bahor va kuzda o'tkaziladigan janglar uchun bedanalar ushlangan [12:149]. Demak, qadimdan bedanalar ishtirokidagi janglar bahorda – Navro'zda o'tkazilib kelinganligini inobatga oladigan bo'lsak, bunday odatlarning kuzda o'tkazilishi Mehrjonga to'g'ri keladi. Bu esa XV asrda ham mazkur bayramning nishonlanganligini isbotlaydi.

Xullas, ushbu qadimiy bayram keyingi davrlarda alohida tantana sifatida nishonlanmay qo'yilgan bo'lsa-da, u butunlay yo'qolib ketmadi. "Mehrjon" kuz va hosil bayramlariga bo'lingan holda davom etmoqda.

Hosilni yig'ishtirib olish bilan bog'liq marosimlar turli-tuman bo'lib, ulardan biri – "qovun sayli"dir. Qovun sayli o'rta asrlarda katta tantanalar bilan o'tkazilgan. Poliz mahsulotlari pisha boshlagan vaqtda dehqonlar qishloq oqsoqollari, qo'ni-qo'shni va yoru birodarlarini bir kun oldin: "*Ertaga falon vaqtga paykalga qovun sayliga boringlar*",– deb taklif qilgan. Bunga oldindan tayyorgarlik ko'rilgan. Saharda eng sara, band bergan qovunlardan uzib salqin joylarga olib qo'yilgan. Sayilga oqsoqollar, bolalar, barcha taklif etilgan. Sayilda erkaklar askiya aytishib, suhbatlashib o'tirganlar. Taomdan so'ng oqsoqollar dehqonning hosiliga baraka tilab duo qiladilar va hosil yig'imiga ruxsat beradilar. Sayil ishtirokchilari eng shirin qovunlar bilan mehmon qilingan [15:90]. Farg'ona vodiysining So'x tumanida "qovun sayli" yetti kun davomida o'tkazilgan. Ushbu kunlarda har bir xonadondan dalaga sut, tuz, yog', sut moyi va idishlar olib chiqiladi. Bir necha boy xo'jaliklar qo'y so'yib, go'shtini qovurib dalaga olib chiqadilar. Paykal boshida marosimiy taomlar pishirilib, iste'mol qilinganidan so'ng jamoadagi qariyalar va mullalar Xo'ja Xizr haqiga duo o'qiydilar [7:109]. Konibodomda o'tkaziladigan "qovun sayli"da esa mahallalar sayiljoyda o'z

chodirlarini tikadilar va bir kunda yuzdan ortiq “jonliq” so‘yilgan. Sayil xursandchilik bilan masxarabozlar, polvonlar, dorbozlar ishtirokida nishonlangan [14:24].

Bog‘dorchilikka ixtisoslashgan hududlarda “olma sayli”, “uzum sayli”, “anor sayli”, “anjir sayli” kabi bayram sayillari o‘tkaziladi. Jumladan, Andijon viloyati Paxtaobod tumani Boykechar qishlog‘ida o‘tkaziluvchi “anjir sayli” asosan qarindoshlar ishtirokida o‘tkazilgan bo‘lsa, Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani Eski arab qishlog‘ida mavjud bo‘lgan “o‘rik sayli”da esa qishloq aholisi ishtirok etgan. Bu kabi sayillarning qadimgi xorazm va so‘g‘dliklarda ham o‘tkazilganligi Beruniy ma‘lumotlarida qayd etilgan bo‘lib, unga ko‘ra qadimda “qovoq bayrami” va uzum bilan bog‘liq bayramlar nishonlangan [4:282].

Avzug oxirlarida yoki sentyabrning boshlarida paxta yig‘imidan oldin “*Birinchi chanoq*” kabi marosimlar o‘tkazilgan. Mazkur bayram XX asr o‘rtalarida paxta yakkahokimligi natijasida vujudga kelgan bayramlardan bo‘lib, sovetlar davrida O‘zbekistonning barcha hududlarida o‘tkazilib kelingan. Tadqiqotchi N. P. Lobacheva ma‘lumotlariga ko‘ra, paxta terimi boshlanishidan oldin tumanlarda katta tantanalar bilan “*Paxta bayrami*” – “*Birinchi chanoq*” bayrami o‘tkazilgan [11:134]. Bayram ertalab soat 9⁰⁰ da boshlanib, soat 22³⁰ da yakunlangan. Ana shundan so‘ng paxta terimi boshlangan.

Har bir meva yoki sabzavotga bag‘ishlangan alohida sayillar bilan bir qatorda, ularning barchasiga bag‘ishlab bir yo‘la o‘tkaziladigan bayram – “Hosil bayrami” yoki “Xirmon to‘yi” deb atalgan. Bu bayram mehnat mavsumlari yakunlangach, dehqonlarning bo‘sh vaqtlarida uyushtirilgan. “Hosil bayrami” tomosha – o‘yinlarga juda boy bo‘lganidan, katta sayilga aylanib ketgan. Hozirgi davrda bunday bayramlar tuman markazlarida o‘tkazilib, ularda karnay-surnaychilar, polvonlar, dorbozlar, xonandalar ishtirokida o‘tkazilmoqda.

Shuningdek, o‘zbek xalqi an‘anaviy o‘yinlaridan bo‘lgan uloq – ko‘pkarining o‘tkazilishi odamlarga o‘ziga xos xursandchilik baxsh etadi [10:108]. Mahalliy aholi tasavvuriga ko‘ra “uloq”da ishtirok etuvchi otlar turli insu-jins, yovuzlik kuchlarini tuyoqlari bilan bosib, ezg‘ilab yer ostiga kirgizib yuborar ekan. Natijada uloq o‘tkazilib turuvchi hududlar poklanib, kelgusi yil barakali, serhosil keladi degan ishonchlar mavjud. Bunday qarashlar insu-jins va yovuz kuchlarning shovqin-surondan qochishi bilan bog‘liq degan qadimiy tasavvurlarning saqlanib qolgan ko‘rinishidan bo‘lishi kerak. Zero, to‘y-ma‘rakalardagi karnay va surnaylarning ovozi yoki kelin tomonga kuyovjo‘ralarning qiyqirib kelishi odati ham yuqoridagi xalqona tasavvurlar bilan bog‘liq jarayondir.

Hozirda oldiga qo‘ygan rejalarini amalda bajara olgan tumanlarda har yili mehnat mavsumi yakunlanganidan so‘ng navbati bilan “Hosil bayram”lari o‘tkazilmoqda.

Hosil yig‘imi oldidan o‘tkaziladigan marosimlar zahirida shukronalikka xos ko‘rinishlar mavjud bo‘lishi bilan birga hosilni magik himoyalash yoki unga qo‘yilgan tabuni olib tashlash kabi g‘oyalar ham yetakchilik qiladi.

Kuz faslida chorvachilik bilan bog‘liq bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Ba’zi bir cho‘ponlar avgustda, boshqa birlari esa sentyabr oyida joriy yildagi ikkinchi jun qirqimini o‘tkazadilar. Bu birinchi qirqimdagi “qovog‘i jun” yoki “jovog‘i jun” (dag‘al, o‘lik jun)dan sifatining yaxshiligi bilan ajralib turadi va alohida e’tibor beriladi. Xalq orasida “*Qo‘y kerak bo‘lsa avgustda, jun kerak bo‘lsa sentyabrda qirqimni o‘tkaz*”[5], degan gap mavjud bo‘lib, sentyabr oyida qo‘ylarning juni birmuncha sifatli, mayin bo‘ladi. Biroq, sovuq ertaroq boshlanib qolsa sentyabrda juni olingan qo‘ylar sovuqdan nobud bo‘lishi mumkin [6]. Shuning uchun cho‘ponlar tabiat alomatlariga asoslangan holda kuzgi jun qirqimini o‘tkazganlar. Oktyabrning o‘rtalaridan boshlab chorvani tog‘ yaylovlaridan olib tusha boshlaganlar. Aynan ushbu marosim juda ham qadimiy bo‘lib, “Avesta”da “Ayatrima”, ya’ni “Chorvani otarga qaytarish bayrami” o‘tkazilganligi qayd qilingan [3:10]. Chorvani kuzda tog‘ yaylovlaridan qaytarib olib tushishdan oldin yomon ko‘zlardan, yovuz kuchlardan saqlanish maqsadida chorva ikkita gulxan orasidan olib o‘tilgan yoki cho‘ponlardan biri qo‘lida mash’ala tutgan holda otarni aylanib chiqqan, isiriq tutatilgan [17:200]. Olov yordamida hayvonlarga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ins-jinslar, yovuz kuchlarni haydash jarayoni eng ko‘p tarqalgan odatlardan bo‘lib, mazkur odatlarning ildizlari olovparastlik davriga borib taqaladi. Cho‘ponlar o‘z chorvasini semirib, ko‘payganligi hamda bexatar, beshikast

qishlovga olib tushib olganligi munosabati bilan Allohga shukronalik tarzida ziyofat uyushtirgan, unda mullalar Qur'oni karim oyatlaridan va Chorvachilik risolasini o'qib berganlar. Bunday marosimlarda yon atrofdagi yoshi ulug' otaxonlar bilan birgalikda yosh cho'ponlar ham ishtirok etganlar. Yoshlarga "Chorvachilik risolasi"ga ish yuritishlari tavsiya qilingan. Unga ko'ra cho'ponlar o'z homiylarini bilishlari va belgilangan tartib-qoidalariga amal qilsalar ishlari rivoj topadi, aks holda baraka ulardan yuz o'girib, topganlari «harom» hisoblanadi deyiladi.

"Chorva hisobi" bo'yicha eng mas'uliyatli davrlardan biri "qo'chqor qo'shish" mavsumi hisoblangan. Etnograf B. X. Karmishevaning ma'lumotlariga ko'ra, laqay cho'ponlari osmonda Sirius yulduzi paydo bo'lgandan so'ng suruvga "qo'chqor qo'shgan"lar. Ularning qarashlariga ko'ra, bu davrda yer yumshab, o't-o'lanlar yana o'sa boshlaydi va qo'chqor qo'shish uchun eng qulay vaqt hisoblanadi [9:107].

Andijonda kuzda qo'y-qo'zilar yaylovlardan qaytgach, suruvga qo'chqor qo'shilgan (qo'chqorlar yaylovga olib chiqilmagan). Qo'ylarning ustiga zotdor nasl bersin, deb oq jo'xori, makkajo'xori yoki bug'doy kabilar sepilgan. Shuningdek, cho'ponlar o'zlarining qo'ylari misoli "tarvuzday katta va semiz dumbali bo'lsin" yoki "ilohim bu yil qo'ylarimiz xuddi tarvuz urug'iday ko'payib barakali bo'lsin", deb qo'chqorning shoxiga tarvuzni urib yorganlar va tarvuz urug'i atrofga sochilgan [8:54-65]. "Chorvachilik risolasi"da esa suruvga qo'chqor qo'shish jarayonida maxsus duolar o'qilishi kerakligi ko'rsatilgan.

Kuz faslida barcha o'simliklar o'sishdan to'xtaydi. Zero, ulug' mutafakkir Abu Rayhon Beruniy Navro'z kuni tabiatda jonlanish boshlansa, Mehrjon kuni o'suvchi narsalar "...o'sish chegarasiga yetib, o'sish moddalarining undan uzilishi va hayvonlarning nasllanishi to'xtaydi.." [4:253, 261], deb bejiz aytmagan.

Qadimiy falsafiy qarashlarga ko'ra, kuz faslida tiriklar bilan o'tganlar dunyosi bir-biridan bahorga qadar ajraladi. Mazkur davrdan boshlab "buyuk zimiston"[2:316] yoki xitoylarning tasavvurlariga ko'ra, In (ayollar ramzi) davri, ya'ni suv va qorong'ulik davri boshlangan [16:30]. Bu narsa tabiatda ham o'z ifodasini topgan bo'lib, mazkur davrdan boshlab nabotot dunyosi uyquga ketadi. Dehqonlar ham hosilni yig'ishtirib, qishga yetarlicha zaxira g'amlaganlaridan so'ng bahorga qadar dam olishib, yangi mavsumga tayyorgarlik ko'radilar.

4. Xulosalar:

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, yilning kuz faslida o'tkaziluvchi taqvimiy urf-odat va marosimlarda hosilni nest-nobud qilmay yig'ishtirib olish g'oyalari yetakchilik qiladi. Qadimiy tasavvurlarga ko'ra bu davr qorong'ulik, zulmat, yovuz kuchlarga qarshi kurashish uchun kuch yig'ib olish davri hisoblanadi.

Shuningdek, tabiat in'om etgan barcha noz ne'matlarni – dehqonchilik va chorva xo'jaligi mahsulotlarini yig'ishtirib, qishga zaxira to'plash; olingan hosil uchun minnatdorchilik, shukronalik tarzida o'tkaziladigan *Hosil bayramlari* mazkur davrdagi asosiy marosimlar hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarining kuz faslida o'tkaziluvchi urf-odat va marosimlari, mahalliy aholining kundalik hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bo'lib, mazkur turkum marosimlarning tarixiy asosida magiya, hosildorlik kulti, o'lib tiriluvchi tabiat kulti, agrar kultlar kabi islomgacha bo'lgan qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq qarashlar mujassamlashgan. Shubhasiz, taqvimiy urf-odat va marosimlarning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishida keyingi diniy tasavvurlar, xususan, islom dini bilan bog'liq qarashlar ham salmoqli ta'sir qilgan. Aynan islomiy va islomgacha bo'lgan tasavvurlar o'zaro uyg'unlashib, mazmunini kategorial munosabatda barqaror tabiatga ega bo'lgan marosimiy dunyoqarash simbiozini tashkil qilgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Абу-л-Фазл-Байхаки. История Масъуда (1030–1041). – М.: Наука, 1969. (Abu-l-Fazl-Bayhaki. History of Mas'ud (1030–1041). – М.: Nauka, 1969.)
2. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Т., 2001. (Avesta. Historical and literary monument. – Т., 2001.)

3. Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Т.: Мерос, 2001. – 31 б. (Ashirov A. Traditions from "Avesta". – T.: Meros, 2001.)
4. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. – Т.: Фан, 1968. Т.1. (Abu Rayhan Beruni. Relics of ancient peoples / Selected works. – T.: Science, 1968. T.1.)
5. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Jalaquduq tumani Abdullabiy qishlogʻi. 2007 yil. (Field notes. Abdullabi village, Jalakudud district, Andijan region. 2007 year.)
6. Dala yozuvlari. Soʻgʻd viloyati Asht tumani Oshoba qishlogʻi. 2023 yil. (Field notes. Ashoba village, Asht district, Sogd region. 2023 year.)
7. Джахонов У. Земледелие таджиков долины Соха. – Душанбе: Дониш, 1989. – 216 с. (Dzhakhonov U. Agriculture of the Tajiks of the Sokha Valley. – Dushanbe: Donish, 1989. – 216 p.)
8. Жўраев М., Пирматова М. Ўзбекларнинг чорвачилик билан боғлиқ маросимлари ва “чорва ҳисоби” тақвими // Оʻzbekiston tarixi. – 2005. – № 4. – Б. 54–64. (Joraev M., Pirmatova M. Rituals of Uzbeks related to cattle breeding and "livestock accounting" calendar // History of Uzbekistan. – 2005. – No. 4. – B. 54–64.)
9. Кармышева Б. Х. Узбеки-локайцы южного Таджикистана: историко-этнографический очерк животноводства в дореволюционный период. – Д.: Изд-во Акад. наук Тадж. ССР, 1954. (Karmysheva B. Kh. Uzbek-Lokais of southern Tajikistan: a historical and ethnographic sketch of animal husbandry in the pre-revolutionary period. – D.: Publishing house Acad. Sciences Taj. SSR, 1954.)
10. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Т.: Ўқитувчи, 1991. (Karaboev U. Holidays of Uzbekistan. – T.: Teacher, 1991.)
11. Лобачева Н. П. Формирование новой обрядности узбеков. – М.: Наука, 1975. (Lobacheva N.P. Formation of new rituals of the Uzbeks. – M.: Nauka, 1975.)
12. Массон М. Е. О былых охотничьих парках в Средней Азии. – Тр. АН Тадж ССР, 1953. Т.XVII. – С. 148–149. (Masson M.E. About former hunting parks in Central Asia. – Tr. AN Taj SSR, 1953. T.XVII. – pp. 148–149.)
13. Метц Адам. Мусульманский ренессанс. – М., 1966. (Metz Adam. Muslim Renaissance. – M., 1966.)
14. Турсунов Б. Р. Конибодом воҳаси муқаддас масканлари тарихидан (Хўжа Такровут мазори мисолида). – Хўжанд, 2007. (Tursunov B. R. From the history of the holy places of the Konibodom oasis (in the case of the tomb of Khoja Takrovut). – Khozhand, 2007.)
15. Ҳақлиев В. Б. XIX аср охири – XX аср бошида Шимолий Фарғонада қишлоқ жамоаси (Тарихий этнографик тадқиқот). Тарих. фан. номз... дисс. – Т., 1998. (Haqliev V. B. A village community in Northern Fergana in the late XIX – early XX centuries (Historical Ethnographic Research). History. science. nomz... diss. – T., 1998.)
16. Эберхард В. Китайские праздники. – М.: Наука, 1977. (Eberhard V. Chinese holidays. – M.: Nauka, 1977.)
17. Шаниязов.К.Ш. К этнической истории узбекского народа. – Т.: Фан, 1974. (Shaniyazov.K.Sh. Towards the ethnic history of the Uzbek people. – T.: Fan, 1974.)

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 11

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000